
MCRJ.uz — Foydalanuvçi qöllanmasi

Yangi kelganlar uçun rasmli va sodda yöriqnoma

Xaritada toping. Profilni töldiring. E'lon bering.

mcrj.uz · 6-tahrir • 26 oktyabr 2026 · Bahodir Abdurahim



Qöllanma böylab yöl

- MCRJ raqamli maydoni nima
- Saytni oçing: kutib oliş oynasi va xarita
- Röyxatdan ötiş (Özbekiston raqami bilan)
- Telegram orqali kiriş (Özbekiston raqami yöqlar va çet eldagilar uçun)
- Mening sahifam, hayvon, e'lon, mahsulot va xizmat
- Qidiriş
- Boğlaniş, bitim va özaro baholaş
- Bepul reklama, körgazma, takliflar va bonus
- Xarita sozlamalari va telefonga örnatiş
- Bilim, çat, AI va boşqa imkoniyatlar
- Xavfsizlik va huquqiy çegara
- Köp beriladigan savollar

MCRJ raqamli maydoni nima

MCRJ.uz — çorvadorlar, fermerlar, veterinarlar, yem-xaşak va mahsulot sotuvçilari, xizmat körsatuvçilar va xaridorlarni bir joyga jamlaydigan raqamli maydon. Xaritada iştirokçilarni körasiz, kerakli çorva, mahsulot yoki xizmatni qidirasiz va egasi bilan boğlanasiz. Hammasi bepul.

> Xaritani köriş va qidiriş uçun röyxatdan ötiş şart emas. E'lon beriş, sörov yuboriş va çatda yoziş uçun kirişingiz kerak.

Siz kimsiz? — nimadan boşlaysiz

Holatingiz	Nima qilasiz	Qayerda öqiysiz
Faqat qarab çiqmoqçiman	Heç narsa qilmang: xaritani suring, yuqoridagi menyudan «Qidiriş»ni bosing.	1- va 5-bölimlar
Özbekiston telefon raqamim bor	«KIRIŞ» → telefon raqam → SMS kod → profilni töldiriş.	2-bölim
Özbekiston raqamim yöq yoki xorijdaman	«Telegram orqali kiriş» → botda Start → kodni soliştirib tasdiqlaş.	3-bölim
Çorvamni, mahsulotimni yoki xizmatimni qöymoqçiman	Mening sahifam → Hayvonlarim → E'lonlarim; mahsulot va xizmat şu yerda.	4-bölim
Kerakli narsani topa olmayapman	«Qidiriş» → «Qidirilmoqda» → «Sörov qoldiriş».	5-bölim
Savolim bor	Pastki öngdagi «AI» tugmasi yoki aloqa kanallari.	9- va 11-bölimlar

1 Xaritada iştirokçini toping › 2 Kerakli e'lonni qidiring › 3 Egasi bilan boğlaning

Bu tahrirda nimalar yangi

- Birinçi kiriş soddalaşdi: faqat viloyat, tuman va asosiy yönaliş hatmiy, qolgan ma'lumotlar «ixtiyoriy» bloklarda yiğilgan; xöjalik joyi belgisi tuman markaziga özi qöyiladi.
- Yangi «Hamkorlik» bölimi: kompaniyalar uçun tijoriy taklif (slaydlar va 7 tilda PDF).
- Özbek lotin nusxasi yangi alifboga ötkazildi (ö, ğ, ş, ç).
- Xarita menyulari bir daqiqadan söng ☰ tugmalariga yiğiladi; viloyat tugmasini ikki marta bosib iştirokçilar röyxatini köriş mumkin.
- Hayvon şajarasi: «Hayvonlarim»da va hayvon tekşiruvi sahifasida 3 avlodli şajara körinadi.
- Telegram orqali kiriş — Özbekiston telefon raqami yöqlar va xorijdagilar uçun (3-bölim).
- Çet eldan kirganlar uçun: öz hududi böyiça qidiruv va «Özbekistondan qidiramizmi?» taklifi.
- Xaritada iştirokçilar viloyat böyiça yiğilgan aylana tugmalarda (son va nom) körinadi.
- Xaritadagi belgingizni özingiz tanlaysiz (hayvon, kasb, ösimlik va boşqa 190 dan ortiq belgi).
- «Xöjalik joyi»ni özingiz alohida belgilaysiz — profil saqlanganda u özgarmaydi.
- «Sahifaga qiziqiş»: hamma umumiy sonni köradi, kim kirganini faqat sahifa egasi köradi.
- «Manfaat» taqdimoti, jonli çat, 3D globus va ovozli AI yordamçi.
- Internet bölmasa — saqlangan ma'lumot körinadi, yozayotgan matn qoralama bölib saqlanadi.
- Bonus ballar avtomatik hisoblanadi; bepul reklama — «Hayvonlarim»dagi hayvonlar uçun.

Rasmlarni qanday öqiş kerak

Rasmlar MCRJ.uz saytining 26 oktyabr 2026 dagi körinişidan olingan (test ma'lumotlari bilan). Rasmdagi töq sariq raqamlar yonidagi röyxatga mos keladi. Sayt yangilansa, tugmalar joyi sal özgarişi mumkin.

1. Saytni oçing: kutib oliş oynasi va xarita



Sayt birinçi marta oçilganda: kutib oliş oynasi.

Kutib oliş oynasida maydon maqsadi va u birlaştiradigan yönalişlar yozilgan. Pastdagi «Boş sahifaga ötiş →» xaritaga olib ötadi, «📘 Raqamli maydon qöllanmasi» esa şu qöllanmani oçadi.




Boş sahifa — jonli xarita (telefonda).

1. Til — tilni almaştiradi: özbekça (kirill va lotin), rusça, qirğizça, qozoqça, tojikça, inglizça.
2. «Allaqaçon … raqamli maydonda birlaşdi» — röyxatdan ötganlar soni.
3. «Manfaat» — qisqa taqdimot: MCRJ.uz'da öz sahifangiz bölsa nima beradi.
4. Rasm va videolar lentasi: rasmga ikki marta bosing — kattalaşadi, yana ikki marta — egasining sahifasi.
5. «Joyim» — xaritani turgan joyingizga qaytaradi (ruxsat bersangiz).
6. Harorat — bosilsa «Havo» va «Quyoş yöli» (çiqiş va botiş vaqti) oynalari oçiladi.
7. $ Dollar kursi — örtaça kurs, oliş va sotiş; bosilsa «$ → söm» va «söm → $» kalkulyatori.
8. Sozlamalar — xarita körinişi, qatlamlar, belgingiz, ovoz va rang (8-bölim).
9. MCRJ logotipi — bosilsa qisqa taqdimot videosi butun ekranda oçiladi (yopiş: ✕ yoki Esc).
10. Yuqori menyu (yonga suring): Bepul reklama, Körgazma-musobaqa, Mening sahifam, Bilim, Yangiliklar, AI yordamçi, Hamkorlik, Maydon işiga doir taklif, Qidiriş, Aloqa.
11. «KIRIŞ» — maydonga qöşiliş yoki kiriş (kirgan bölsangiz örnida «Siz safimizga qöşilgansiz» yozuvi).
12. Çat — hamma uçun oçiq jonli suhbat.
13. ☰ (çap pastda) — xarita tugmalari ustunini (til, hisoblagiçlar, harorat, sozlamalar) oçadi va yopadi.
14. ☰ (öng tepada) — tepadagi menyuni oçadi va yopadi; «AI yordamçi» bölimi ham şu menyuda.

Xaritada nimalarni qilasiz

- Xaritani barmoq bilan suring, ikki barmoq bilan kattalaştiring (kompyuterda — siçqonça va ğildirak).
- Iştirokçilar viloyat böyiça dumaloq tugmalarda yiğiladi (son va nom; Toşkent şahri va viloyati bitta «Toşkent» tugmasida). Xaritani taxminan 5 km balandlikkaça yaqinlaştirsangiz, ekran markazidagi viloyat iştirokçilari öz joylariga yoyiladi. Tugmani bosing — şu viloyat iştirokçilari oçiladi (tugma sariq böladi), yana bosing — qayta yiğiladi.
- Belgini bosing: iştirokçining nomi, faoliyati, hududi va «Batafsil» tugmasi çiqadi. Yaşil halqa — hozir onlayn.
- Xaritadan kuçli uzoqlaşsangiz, yassi xarita örniga 3D globus çiqadi (kompas tugmasi şimolni körsatadi).
- Ba'zan ekranda samolyot ortidagi banner yoki qisqa e'lon körinadi — bu maydon xabarlari; transport harakati şartli, real vaqtdagi joylaşuv emas.

Viloyat tugmasini tez-tez ikki marta bosing — şu viloyat iştirokçilarining röyxati oçiladi: nomi, asosiy yönalişi va aloqa. Qönğiroq va Telegram tugmalari faqat egasi raqamini oçiq qilgan bölsagina körinadi.



Viloyat iştirokçilari röyxati (viloyat tugmasini ikki marta bosganda).

Menyular özi yiğiladi

Xaritada iş uçun joy böşaşi uçun çap ustun va tepadagi menyu taxminan 1 daqiqa işlatilmasa, ☰ tugmalari içiga kirib ketadi. Kerak bölsa, ☰ ni bosing — ular qaytib çiqadi. Logotip va çat tugmasi doim ekranda qoladi. AI yordamçi tugmasi endi xaritada suzib yurmaydi: u tepadagi menyuda.



Menyular yiğilgan holat: logotip, çat va ikkita ☰ tugma.



Kompyuterda: çap ustundagi tugmalar va tepadagi menyu şu tartibda.

Telefonni yotqizsangiz, sayt kompyuter körinişiga ötadi (Sozlamalardan öçiriş mumkin). Standart holatda xarita yengil «Xarita» körinişida oçiladi, faqat viloyat va tuman çegaralari körinadi; qolganini Sozlamalardan yoqasiz.

2. Röyxatdan ötiş (Özbekiston raqami bilan)



Kiriş sahifasi: telefon raqam va kiriş usullari.

1. Telefon raqamingiz (+998 bilan boşlanadi).
2. «Kod yuboriş» — raqamingizga SMS kod keladi.
3. «Telegram orqali kiriş» — Özbekiston raqami yöqlar uçun (3-bölim).

Qadamma-qadam

1. «KIRIŞ» tugmasini bosing (xarita pastida).
2. Telefon raqamingizni kiriting.
3. «Kod yuboriş»ni bosing.
4. SMS orqali kelgan 6 xonali kodni kiritib, «Tasdiqlaş»ni bosing.
5. Birinçi kirişda «Ommaviy oferta va foydalaniş şartlari»ni öqib, qabul qiling.
6. Profilni töldiring (quyida). Profil töldirilmagunça röyxatdan ötiş tugamaydi.

> Bitta raqam — bitta profil. Keyingi safar xuddi şu raqam bilan kirasiz; ikkinçi profil oçilmaydi.

Profilni töldiriş



Profil: viloyat, tuman va asosiy faoliyatni tanlaş.

1. Viloyat — röyxatdan tanlanadi.
2. Tuman — viloyatni tanlagandan keyin oçiladi.
3. Asosiy faoliyat — çorvador, veterinar, yem-xaşak sotuvçi va h.k. (qöşimça faoliyatlarni ham belgilaş mumkin).

Viloyat, tuman va asosiy faoliyat — majburiy. «Saqlaş»ni bosganingizda brauzer joylaşuvingizga ruxsat söraydi — «Ruxsat beriş»ni bosing.

- Ixtiyoriy: nom (masalan, «Abdullayev xöjaligi»), rasm yoki video, qisqa ma'lumot, ijtimoiy tarmoq havolasi.
- «Telefon raqamimni oçiq körsatiş» belgisi — raqamingiz e'lonlar ostida «Qönğiroq qiliş» va «Telegram'da yoziş» tugmalarini çiqaradi.
- Xöjalik joyini profildan alohida belgilaş — 4-bölimda.
- «+ Qöşimça yönaliş qöşiş» va «+ Yana ma'lumot qöşiş» bloklari dastlab yiğilgan — kerak bölsa oçing (nom, rasm, ma'lumot, ijtimoiy tarmoq şu yerda).
- Profili hali tölmagan yangi foydalanuvçiga «Mening sahifam» faqat profilni töldirişni körsatadi; hayvonlar, e'lonlar, ballar va taşriflar profil tölgandan keyin oçiladi.



Xöjalik joyi: viloyat va tuman tanlansa, belgi tuman markaziga özi qöyiladi.

Telefon raqamingiz faqat siz rozi bölsangiz oçiq körsatiladi. Raqam yopiq bölsa, sizga saytdagi «Sörov yuboriş» orqali murojaat qilinadi.

Joylaşuvga ruxsat bermasangiz, profil saqlanmaydi. Rad etgan bölsangiz: manzil qatori yonidagi qulf belgisi → «Joylaşuv» → «Ruxsat beriş», keyin «Saqlaş»ni qayta bosing.

3. Telegram orqali kiriş (Özbekiston raqami yöqlar va çet eldagilar uçun)

Özbekiston sim kartasi (telefon raqami) yöqmi? Xorijda yaşaysizmi yoki işlaysizmi? Muammo yöq: saytga Telegram orqali kiriş mumkin. SMS ham, Özbekiston raqami ham kerak emas — telefoningizda yoki kompyuteringizda Telegram bölsa bas.

1. Saytda «Telegram orqali kiriş»ni bosing
2. Botda «Start»ni bosing
3. Kodlarni soliştirib «Tasdiqlaş»ni bosing

Qadamma-qadam

1. mcrj.uz saytini oçing va «KIRIŞ» tugmasini bosing.
2. Telefon raqami maydoni tagidagi «Telegram orqali kiriş» tugmasini bosing (oldingi rasmdagi 3-tugma).
3. Sayt ekranda 4 xonali KOD (masalan, 4157) va «Telegram'ni oçiş» tugmasini körsatadi. Sahifani yopmang.
4. «Telegram'ni oçiş»ni bosing. Telegram'da MCRJ boti oçiladi: pastdagi «Start» (START / NAÇAT) tugmasini bosing.
5. Bot «mcrj.uz saytiga kiriş sörovi» xabarini va 4 xonali kod yuboradi. Bu kod saytdagi bilan BIR XIL ekanini tekşiring.
6. Kodlar bir xil bölsa — «✅ Tasdiqlaş». Farq qilsa yoki siz söramagan bölsangiz — «❌ Bekor qiliş».
7. Saytga qayting: bir neça soniyadan keyin sayt özi sizni kiritadi.
8. Oferta şartlarini qabul qiling va profilni töldiring (quyida).




Saytdagi kutiş oynasi: kod va Telegram’ni oçiş tugmasi.

1. Sayt körsatgan 4 xonali kod — botdagi bilan bir xil bölişi kerak.
2. «Telegram’ni oçiş» — MCRJ botini oçadi.

Profilni töldiriş (majburiy)

Telegram orqali kirganlarga avval «Qaysi davlatdasiz?» deb söraladi. Özbekistonda bölsangiz viloyat va tuman röyxatdan tanlanadi; boşqa mamlakatda bölsangiz — mintaqa va şaharni özingiz yozasiz.



Çet eldan kirganlar: mamlakatni tanlab, mintaqa va şaharni yoziş.

1. Qaysi davlatdasiz? — Qozoğiston, Qirğiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Rossiya, Afğoniston yoki boşqa.
2. Viloyat / mintaqa — özingiz yozasiz (masalan, «Çuy viloyati»).
3. Şahar / tuman — özingiz yozasiz (masalan, «Bişkek»).
4. Asosiy faoliyat — röyxatdan tanlanadi.

- Mamlakat va manzilni kiritiş şart.
- «Saqlaş»ni bosganingizda brauzerdan joylaşuvga ruxsat bering — joylaşuv aniqlanmagunça röyxatdan ötiş yakunlanmaydi.
- Çet ellik uçun hamma imkoniyat oçiq: öz sahifasi, hayvonlar, e'lonlar, mahsulot va xizmatlar.

> Joylaşuvga ruxsat bermasangiz profil saqlanmaydi va kiriş tugamaydi. Rad etgan bölsangiz: qulf belgisi (manzil qatori yonida) → «Joylaşuv» → «Ruxsat beriş», keyin sahifani yangilang. Qurilmada geolokatsiya (GPS) yoqilgan bölişi kerak.

Keyingi safar qanday kirişim mumkin

Xuddi şunday: «Telegram orqali kiriş» → botda Start → «Tasdiqlaş». Bir Telegram hisobi — bitta profil. Agar Telegram xabarlarini avval profilingizga ulagan bölsangiz (9-bölim), Telegram orqali kiriş sizni öşa profilingizga kiritadi.

Nimadir işlamasa


Muammo	Nima qiliş kerak
Botda «havola eskirgan» çiqdi	Havola 10 daqiqa amal qiladi va bir marta işlaydi. Saytda «Telegram orqali kiriş»ni qayta bosib, yangi havola oling.
Kodlar bir xil emas	«Bekor qiliş»ni bosing. Havolani sizga boşqa odam yuborgan bölişi mumkin — şubhali havolani oçmang. Saytdan özingiz qayta boşlang.
Telegram oçilmaydi	Telegram ilovasi örnatilgan bölişi kerak (telegram.org). Kompyuterda Telegram Desktop yoki web.telegram.org işlaydi.
Sayt «kutyapmiz...» deb turaveradi	Botda «Tasdiqlaş» bosilganiga işonç hosil qiling va sayt sahifasini yopmang. 10 daqiqa ötsa, qayta boşlang.

Muammo	Nima qiliş kerak
Joylaşuv aniqlanmaydi	Qurilmada geolokatsiyani yoqing, brauzerga ruxsat bering (yuqoridagi ogohlantirişga qarang).

Telefon raqami bölmagani uçun e'loningiz ostida «Qönğiroq qiliş» tugmasi çiqmaydi; sizga boşqalar «Sörov yuboriş» orqali murojaat qiladi — javoblarni «Xuş kelibsiz» sahifasidagi «Murojaatlarim»da körasiz.

Xohlasangiz, botda «📱 Raqamni ulaşiş» tugmasini bosib Telegram raqamingizni profilga ulaysiz; xabarlarni Telegram'da oliş uçun 9-bölimdagi «Telegram xabarlari»ni ulang.

4. Mening sahifam, hayvon, e'lon, mahsulot va xizmat



Kirgandan keyin oçiladigan «Xuş kelibsiz» sahifasi: şaxsiy bölimlarga kiriş joyi.

Röyxatdan ötganingizdan yoki kirişdan söng şu «Xuş kelibsiz» sahifasi oçiladi; içkaridagi «Orqaga» tugmalari ham şu yerga qaytaradi. Tepadagi menyudagi «Mening sahifam» tugmasi esa bevosita profilingizni oçadi (pastga sursangiz, hayvonlar, e'lonlar, mahsulotlar, xizmatlar, ogohlantirişlar va Telegram havolalari bor). Şaxsiy bölimlar: Profili hali tölmagan yangi foydalanuvçiga «Mening sahifam» tugmasi faqat profilni töldirişni körsatadi.

- Mening profilim — şaxsiy ma'lumotlar, bonus ballar, sahifaga qiziqiş.
- Hayvonlarim, E'lonlarim, Mahsulotlarim, Xizmatlarim — öz çorva, mahsulot va xizmatlaringiz.
- Murojaatlarim va Bildirişnomalar — kelgan va yuborgan sörovlar, xabarlar.
- Bepul reklama, Musobaqa-körgazma, Taklif va şikoyatlar, Telegram xabarlari.



Profil: sahifaga qiziqiş, bonus ballar va ma'lumotlaringiz.

Sahifaga qiziqiş

Profilingizda «Sahifamga kirganlar»: boşidan va bugun neça kişi kirganini körasiz. «Kim kirgan» röyxatini faqat özingiz körasiz — undan har bir kişi bilan «Aloqa» tugmasi orqali boğlaniş mumkin. Umumiy sonni (mehmonlar bilan) hamma köradi, xaritada belgi tepasida ham körinadi. Bu blok profil tölgandan keyin körinadi.

Xöjalik joyi

Xöjaligingiz xaritada belgilangan nuqtada körinadi. Profilda viloyat va tuman tanlaganingizda belgi tuman markaziga ÖZI qöyiladi (taxminiy). Uni xöjaligingiz turgan joyga suring, xaritani bosing yoki «📍 Mening joyim (GPS)» tugmasini bosing. Yaqinlaştirsangiz, köça va qişloq nomlari körinadi. Profilni saqlaş bu nuqtani özgartirmaydi. Tanlagan viloyatingizdan juda uzoq nuqta qabul qilinmaydi.

Xaritadagi belgingiz

Sozlamalarda «Xaritadagi belgim» bölimi bor: özingiz yoqqan belgini (hayvon, kasb, ösimlik, oziq-ovqat va boşqa 190 dan ortiq emodji) tanlaysiz — hamma sizni xaritada şu belgi bilan köradi. «Avtomat» tanlansa, belgi kasbingizga va hayvonlaringizga qarab qöyiladi.



Sozlamalar: xaritadagi belgingizni tanlaş.

1. Hayvonlarim: hayvonni qöşing
2. E'lonlarim: hayvonni tanlang
3. Narx va tavsifni saqlang

Çorva sotiş tartibi: avval hayvonni «Hayvonlarim»ga qöşasiz, keyin unga «E'lonlarim»da e'lon joylaysiz. Mahsulot va xizmat töğridan-töğri qöşiladi.

Hayvonlarim



Hayvonlarim: röyxat va yangi hayvon qöşiş tugmasi.

Tugmani bosib, şaklni töldiring:

1. «+ Yangi hayvon qöşiş» — hayvon qöşiş şaklini oçadi.



Yangi hayvon qöşiş şakli.

- turi (urğoçi qözi, qöçqor qözi, ona qöy, qöçqor, mol, buzoq, eçki, uloq, ot, tuya, boşqa) va jinsi;
- tuğilgan sana, zoti/guruhi, tirik vazni (kg);
- ixtiyoriy — kelib çiqişi: onasi, otasi, bobo va buvilari;
- ixtiyoriy — ölçovlar (sm): yelka balandligi, tana uzunligi, kökrak aylanasi, çuqurligi va kengligi, tos kengligi;
- rasm (tavsiya etiladi).

> Har bir hayvonga maydon içidagi raqam beriladi — u faqat öz çorvangizni kuzatiş uçun. Bu davlat identifikatsiya raqami yoki zotni tasdiqlovçi hujjat emas.

Hayvon şajarasi

«Hayvonlarim»da har bir hayvon ostida «🌳 Şajara» havolasi bor. Bosilsa, 3 avlodli şajara oçiladi: hayvon → ota-ona → bobolar. Ma'lumot «Kelib çiqişi» bölimida kiritganlaringizdan olinadi; kiritilmagan joylar xira körinadi, har bir hayvon «Tasdiqlangan» yoki «Tasdiqlanmagan» deb belgilanadi. Şajara hayvon tekşiruvi sahifasida (şahodatnoma QR-kodi orqali) ham körinadi. Bobolarni köriş uçun öngga suring.



Hayvon şajarasi: hayvon, ota-ona va bobolar.

E'lonlarim



E'lonlarim: e'lon röyxati va yangi e'lon joylaş tugmasi.

1 «+ Yangi e'lon joylaş» — e'lon şaklini oçadi.

1. «+ Yangi e'lon joylaş»ni bosing.
2. Röyxatdan hayvonni tanlang.
3. Narxni sömda yozing yoki «Narx kelişiladi»ni belgilang.
4. Qisqa tavsif qöşib, «Saqlaş»ni bosing.

Mahsulotlarim



1 «+ Yangi mahsulot qöşiş» — şaklni oçadi.

Mahsulotlarim: mahsulot qöşiş.

Sut, göşt, yem-xaşak, jun, asbob-uskuna va boşqalar uçun: nomi, toifasi, tavsifi, miqdori, narxi (yoki «Narx kelişiladi»), viloyat va tuman, 1–3 ta rasm va ixtiyoriy video. Çet ellik foydalanuvçida hudud profildan olinadi.

Xizmatlarim



Xizmatlarim: xizmat taklifi va kelgan sörovlar.

1 «+ Yangi xizmat taklifi» — şaklni oçadi.

Veterinar, qassob, transportçi, maslahatçi, jun oluvçi va boşqalar uçun: sohani tanlang, narxni yozing (yoki «Narx kelişiladi»), tavsif qöşing. Şu sahifaning özida «Kelgan sörovlar» va «Yuborgan sörovlarim» ham körinadi.

> Maslahat: aniq yozing — nima, neça boş/dona, narxi, qayerda. Rasmli e'lonlarni köproq körişadi.

5. Qidiriş



Qidiriş sahifasi.

1. Bölimlar: Çorva, Xizmatlar, Mahsulotlar, Qidirilmoqda.
2. Qidiruv sözi — kirill yoki lotinda yoziş mumkin, ikkalasi ham topiladi.
3. Hudud — viloyat yoki «Butun Özbekiston».
4. «Qidiriş» tugmasi.

Qidiriş yuqoridagi menyudagi «Qidiriş» tugmasida. Kiriş şart emas. Tepada törtta bölim bor:

Bölim	Nimani topasiz	Qöşimça filtrlar
Çorva	Sotuvdagi çorva e'lonlari	Turi (qöy, qözi, mol, buzoq, eçki, uloq, ot, tuya), narx oraliği
Xizmatlar	Veterinar, yem-xaşak, transport, qassob, maslahatçi va 40 dan ortiq soha	Soha
Mahsulotlar	Sut, göşt, yem, asbob-uskuna va boşqalar	Narx oraliği
Qidirilmoqda	Xaridorlar hozir nima qidiryapti	Bölim (çorva/xizmat/mahsulot)

Qanday qidiriş kerak

1. Kerakli bölimni tanlang.
2. Sözni yozing.
3. Viloyat va tumanni tanlang (yoki «Butun Özbekiston»).
4. Xohlasangiz: narx oraliği, «Faqat rasmli», saralaş — avval yangilari, arzonlari, qimmatlari yoki «Menga yaqinlari».
5. «Qidiriş»ni bosing. Natijalarni «Jonli xaritada köriş →» orqali xaritada ham köriş mumkin.

Telefonda qöşimça filtrlar uçun sahifani pastga suring.

«Qidirilmoqda» — kerakli narsani topa olmasangiz

Kerak bölgan narsa topilmasa, «Sörov qoldiriş» orqali nima qidirayotganingizni yozing. Sörovingiz «Qidirilmoqda» bölimida turadi, hududingizdagi sotuvçilarga xabar boradi, mos e'lon çiqsa — sizga ham bildirişnoma keladi.

> Sotuvçi bölsangiz, «Qidirilmoqda» bölimini tez-tez körib turing: xaridor nima qidirayotgani yozilgan, sizda bölsa bir bosişda boğlanasiz.

«Qidirilmoqda» sörovi 30 kundan keyin özi yopiladi; xohlasangiz özingiz ham yopa olasiz.

Çet eldan kirganlar uçun



Çet ellik uçun qidiruv: «Mening hududim» va Özbekistondan qidiriş taklifi.

1. Qidiruv avval özingiz kiritgan hudud böyiça işlaydi («📍 Mening hududim»).
2. U yerda hali e'lon bölmasa, sayt şuni aytadi; «Özbekistondan qidiramizmi?» tugmasi butun Özbekistondan qidiradi.

Özbekiston raqami bilan kirganlarga bunday savol va tugma körinmaydi — ular uçun qidiruv avvalgidek butun Özbekiston böyiça.

6. Boğlaniş, bitim va özaro baholaş

1 Sörov yuboring › 2 Javob va kelişuv › 3 Bitim holati › 4 Özaro baholaş

E'lon yoki xizmat egasi bilan ikki yöl bilan boğlanasiz:

- Töğridan-töğri: iştirokçi sahifasi yoki e'lon ostidagi «Qönğiroq qiliş» va «Telegram'da yoziş» tugmalari. Bu tugmalar faqat egasi raqamini oçiq körsatişga rozi bölsa çiqadi.
- Sayt orqali sörov: raqami yopiq bölsa, «Sörov yuboriş» tugmasi bor (kiriş kerak). Xabarda yuboruvçi kim ekani körsatiladi.



Iştirokçi sahifasi: «Sahifaga qiziqiş» va boğlaniş tugmalari.

Murojaat qanday keçadi

1. Siz sörov yuborasiz — u egasining «Murojaatlarim → Kelgan sörovlar» bölimiga tuşadi.
2. Egasi javob beradi; sörov holati özgarganda sizga bildirişnoma keladi.
3. Kelişuvdan söng tomonlar bitim holatini belgilaydi: «Bitim yakunlandi» yoki «Bitim amalga oşmadi».
4. Bitim yakunlansa, ikkala tomon bir-biriga baho (yulduzça) va izoh qoldiradi.



Murojaatlarim: kelgan sörov va bitim tugmalari.

Baholaş «yopiq» ötadi: sizning bahoyingiz ikkinçi tomon ham baho qöymagunça körinmaydi, keyin ikkalasi bir vaqtda oçiladi. Faqat bitimda qatnaşganlar bir-birini baholay oladi. Hali bahosi yöqlarda «Hali baho yöq» yozuvi turadi.

Bildirişnomalar



Bildirişnomalar: yangi sörovlar va mosliklar.

«Mening sahifam → Bildirişnomalar»da yangi sörovlar, holat özgarişlari, baholar va «Qidirilmoqda» mosliklari yiğiladi. «Hammasi öqilgan deb belgilaş» tugmasi röyxatni tozalaydi. Markazdan kelgan muhim xabarlar ham şu yerda körinadi.

7. Bepul reklama, körgazma, takliflar va bonus

Bepul reklama



Bepul reklama: «Hayvonlarim»dagi hayvonlarni tanlaş.

Çorvangizni Chorvador.uzb sahifasida xaridorlarga taniştiriş uçun bepul navbatga yozilasiz. Ariza beriş «Hayvonlarim»ga kamida bitta hayvon qöşganingizdan keyin oçiladi.

1. Bepul reklama bölimini oçing (kiriş kerak).
2. «Hayvonlarim»dagi hayvonlaringiz röyxati çiqadi — ma'lumotni qayta kiritiş şart emas.
3. Reklama qilmoqçi bölganlaringizni belgilang; bir neçtasini tanlaş mumkin.
4. «Tanlanganlarni bepul reklama navbatiga qöşiş»ni bosing.

Arizasi körib çiqilayotgan hayvon «Arizasi bor» belgisi bilan turadi. Ariza «Rad etildi» yoki «Reklama qilindi» holatiga ötgaç, uni yana navbatga qöyiş mumkin. Sotilgan yoki söyilgan hayvonlar röyxatda körinmaydi.

Körgazma-musobaqa

Pilot bosqiçda qöyçilik böyiça 4 ta viloyatda maslahat majlislari ötkaziş rejalaştirilmoqda. Özingizga qulay hududni tanlab, qiziqiş bildirasiz — qayerda röyxatdan ötganingiz ahamiyatsiz. Sanasi, joyi va iştirokçilarni tanlaş mezonlari keyinroq e'lon qilinadi.

Çorvaçilikni rivojlantiriş böyiça taklif



Takliflar oynasi: reyting va taklif kiritiş.

Takliflar oynasi ikki bölimli: «Taklif kiritiş» — sohani rivojlantiriş böyiça ğoyangizni yozasiz; «Reyting» — e'lon qilingan takliflarga layk yoki dizlayk bosasiz, eng köp ovoz yiğganlar 1-, 2- va 3-örinlarda turadi. Oyna xaritadagi «Taklif» tugmasi bilan (u Sozlamalardan yoqiladi) yoki mcrj.uz/takliflar sahifasidan oçiladi. Yuqoridagi menyudagi «Maydon işiga doir taklif» esa boşqa bölim: sayt işidagi xatolik va şikoyatlarni yuboriş uçun.

Tavsiya va bonus

Kirganingizdan keyin sizga şaxsiy tavsiya havolasi beriladi (Profilda «Nusxalaş» va «Ulaşiş»). Şu havola orqali maydonga qöşilgan har bir taniş uçun ball yiğasiz:

Bosqiç	Ball
Havola orqali röyxatdan ötdi	+10
Hayvon yoki xizmat e'loni qöydi	+20
30 kun faol bölib turdi	+20
Jami bir taniş uçun	50

Har bosqiç sayt tomonidan avtomatik tekşiriladi va ball profilingizga qöşiladi. Bir telefon yoki qurilmadan faqat bir röyxatdan ötiş hisoblanadi; oyiga köpi bilan 10 ta tasdiqlangan tavsiya inobatga olinadi. Ballar hozirça profilda körsatiladi; imtiyozlarga almaştiriş keyingi bosqiçda. Ballar profil tölgandan keyin körinadi.

8. Xarita sozlamalari va telefonga örnatiş



Sozlamalar oynasi (çap ustundagi ⚙ tugmasi).

Xarita körinişi, ovoz, qatlamlar, xaritadagi belgingiz va rang şu oynadan boşqariladi:

Sozlama	Nima özgaradi
Xarita körinişi	Xarita (standart, yengil), Yöldoş (sputnik) yoki Gibrid. Tanlovingiz şu qurilmada esda qoladi.
Ovoz	Tugmalar bosilgandagi yumşoq ovoz.
Taklif tugmasini körsatiş	Xaritadagi «Taklif» tugmasi (standart holatda yaşirin).
Ilovani örnatiş taklifini körsatiş	Saytni telefonga ilova kabi örnatiş taklifini qaytaradi.
Yotiq holatda kompyuter körinişi	Telefonni yotqizganda sayt kompyuterdagidek körinadi.
Xarita qatlamlari	Avtomobil va temir yöllar, transport harakati (standart holatda faqat viloyat va tuman çegaralari yoqilgan).
Xaritadagi belgim	Öz belgingizni tanlaş (4-bölimga qarang).
Rang	Tugmalar va lenta rangi: 13 ta variant.

> Xaritadagi transport harakati şartli tasvirlangan — bu real vaqtdagi joylaşuv emas. Xaritadagi çegaralar ham tasviriy, rasmiy hujjat hisoblanmaydi.

Til çap ustunning eng yuqorisidagi til tugmasi orqali almaştiriladi (yuqoriga/pastga strelkalari bilan).

Saytni telefonga ilova kabi örnatiş

1. Android / Chrome: pastda çiqqan «MCRJ ilovasini örnating» oynasida «Örnatiş»ni bosing.
2. iPhone / Safari: «Ulaşiş» → «Boş ekranga qöşiş».
3. iPhone / boşqa brauzer: öng yuqoridagi menyu → «Boş ekranga qöşiş»; bölmasa saytni Safari'da oçing.

Şundan söng MCRJ belgisi telefoningiz ekranida paydo böladi va sayt tezroq oçiladi.

9. Bilim, çat, AI va boşqa imkoniyatlar

Telegram xabarlari



Telegram xabarlari: botni ulaş va xabar turlari.

Saytdagi xabarlarni Telegram'da ham olişingiz mumkin. «Mening sahifam → Telegram xabarlari» → «Telegram'ga ulaş»ni bosing, botda «Start»ni bosing — tayyor. Qaysi xabarlar kelişini özingiz tanlaysiz:

- murojaatlar va sörovlar (e'loningizga, profilingizga);
- taklif va şikoyatlaringizga javoblar;
- sayt yangiliklari.

Töxtatiş: botga /stop deb yozing yoki şu sahifada «Telegram'ni uziş»ni bosing. Botda «📱 Raqamni ulaşiş» tugmasi ham bor: uni bosib Telegram raqamingizni profilga ulaysiz.

AI yordamçi



AI yordamçi oynasi.

- Savol beriş uçun kirişingiz kerak; bir kunda 5 ta bepul savol beriladi, qolgani javob ostida körinadi.
- Savolni yoziş yoki «🎤 Ovozli savol» tugmasi bilan aytiş mumkin; javobni «🔊 Tinglaş» bilan eşitasiz.
- Javob siz tanlagan tilda böladi. Yordamçi saytdan foydalanişni tuşuntiradi va çorvaçilik böyiça maslahat beradi, lekin veterinariya taşxisi qöymaydi va dori dozasini aytmaydi.
- AI yordamçi endi xaritada suzuvçi tugma emas: u tepadagi menyudagi «AI» bölimida oçiladi.

Jonli çat



Jonli çat.

Çat tugmasi umumiy çatni oçadi. Öqiş — hamma uçun, yoziş — faqat kirganlar uçun. Panelni sarlavhasidan tortib suriş mumkin (sarlavhaga ikki marta bosilsa — joyiga qaytadi). Haqorat va sökinişli xabarlar yuborilmaydi; öz xabaringizni özingiz öçira olasiz, qoidabuzarlar bloklanadi.

«Manfaat» taqdimoti



«Manfaat» taqdimoti.

Çap ustundagi «Manfaat» tugmasi «MCRJ.uz'da öz sahifangiz bölsa — kelgusida nima beradi?» taqdimotini oçadi: 19 ta slayd, tik ekranda 9:16, yotiqda 16:9. Yonlaridagi strelkalar yoki klaviatura (←/→) bilan varaqlanadi.

Bilim va Yangiliklar



Bilim bölimi: qöllanma.

«Bilim»da tasdiqlangan tajriba va foydali materiallar bepul yuklab olinadi: şu qöllanma (7 tilda, PDF yoki saytda öqiş). «Yangiliklar»da platformaning sönggi yangilanişlari e'lon qilinadi.

Hamkorlik (kompaniyalar uçun)

Tepadagi menyudagi «Hamkorlik» tugmasi hamkorlik sahifasini oçadi: çorvaçilik sohasidagi kompaniyalar, dilerlar va xizmat körsatuvçilar uçun tijoriy taklif. Taklif slaydlar körinişida (yonga suring), har bir slaydni rasm sifatida saqlaş mumkin; töliq matn va paketlar şartlari 7 tilda PDF'da. Bu bölim oddiy foydalanuvçilar uçun emas — MCRJ bilan hamkor bölmoqçi bölgan kompaniyalarga qaratilgan.



«Hamkorlik» sahifasi: taklif slaydlari va PDF.

Hamkorlar uçun: xaritada öz tarmoğingiz namunasi

«Hamkorlik» sahifasining pastida «Taklifdan foydalansangiz, xaritada qanday körinadi» bloki bor. U taklifni qabul qilişdan oldin tarmoğingiz boş xaritada qanday körinişini köriş imkonini beradi. Namuna faqat siz uçun, şu brauzer sessiyasida körinadi va boşqa foydalanuvçilarga körsatilmaydi; ma'lumotlar tasavvuriy (demo), telefonlar haqiqiy emas.




Hamkorlik sahifasidagi namuna bloki: paket va yönaliş tanlaş.

1. «Hamkorlik» sahifasini oçing va pastga suring.
2. «Paket»ni (1–5) va «Yönaliş»ni tanlang: yem va ozuqa, veterinariya xizmati, zooapteka, göşt mahsulotlari dökoni yoki qözi-qöçqor savdosi.
3. «Xaritada namunani köriş» tugmasini bosing — boş xarita oçiladi va unda tanlangan yönaliş böyiça tarmoq belgilari paydo böladi.
4. Belgilar uç darajali: Markaz (Toşkent), viloyat dillerlari va tuman subdillerlari. Belgini bosing — unga boğliq belgilar yoruğ çiziqlar bilan ajraladi va suriladigan röyxat oynasi oçiladi: hudud, taşkilot va «Qönğiroq qiliş» tugmasi.
5. Hududda diller hali bölmasa, röyxatda «Bu hududda diller hali yöq» va «Taklif beriş» havolasi turadi — u «Aloqa» sahifasini tanlangan yönaliş va hudud bilan töldirib oçadi.
6. Xaritadagi «Xizmat tarmoği» panelida «Namoyiş» nişoni, A−/A+ (kattalik), «−» (yiğiş) va «×» tugmalari bor; «×» namunani töliq öçiradi.



Xaritada namuna: «Xizmat tarmoği» paneli va tarmoq belgilari.



Belgi bosilganda: boğliq belgilar yoruğ çiziqlar bilan ajraladi, röyxat oynasi oçiladi.



«Taklif beriş» havolasi «Aloqa» sahifasini tanlangan yönaliş va hudud bilan oçadi.

Paketdagi nuqtalar soni: 1-paket — 5 tagaça, 2-paket — 50 tagaça, 3 va 4-paket — 100 tagaça va 20 ta «Diller qidirilmoqda» belgisi, 5-paket — 200 tagaça va 50 ta belgi. Tarmoq moduli hozir faqat namuna sifatida işlaydi, hamma foydalanuvçi uçun yoqilmagan. MCRJ.uz faqat axborot va aloqa uçun joy beradi; xizmat sifati, tölov va şartnomalar uçun javobgar emas.

Aloqa va taklif-şikoyatlar



Biz bilan boğlaniş.

Kanal	Manzil
Telefon / Telegram / WhatsApp	+998 97 404-24-00
Instagram	instagram.com/chorvador.uzb
E-mail	info@mcrj.uz

Hayvon guvohnomasi (PDF)

«Mening sahifam → Hayvonlarim»da har bir hayvon uçun «Guvohnomani PDF yuklab oliş» tugmasi bor. Guvohnomadagi QR-kodni telefon bilan skanerlasangiz, hayvonning oçiq ma'lumot sahifasi oçiladi. Bu — maydon içidagi ma'lumotnoma, davlat hujjati emas (10-bölimga qarang).

E'lon eslatmasi

Agar kirgan bölsangiz-u, faol e'loningiz bölmasa, sayt kuniga köpi bilan bir marta «E'loningizni qoldiring» deb eslatadi. «Hozir emas» desangiz, keyinroq yana söraydi. Profilda rasm, ism yoki manzil yetişmasa, pastda yumşoq eslatma çiqadi — yopsa böladi.

Internet bölmasa

Internet uzilsa, tepada «Internet yöq — saqlangan ma'lumot körsatilmoqda» belgisi çiqadi. Yozayotgan matnlaringiz qoralama bölib saqlanadi va qayta oçilganda tiklanadi; yuboriş internet qaytgandan keyin tasdiqlanadi.

10. Xavfsizlik va huquqiy çegara

MCRJ.uz — taşkiliy-axborot maydoni. U:

- davlat reyestri emas va davlat identifikatsiya raqami bermaydi;
- veterinariya hujjati, zot yoki naslçilik sertifikati bermaydi;
- onlayn tölov qabul qilmaydi va savdo bitimlarining tarafi emas — kelişuv va hisob-kitob tomonlar örtasida bevosita böladi.

Ma'lumotlaringiz:

- Telefon raqamingiz faqat siz rozi bölsangiz oçiq körsatiladi.
- Harorat va quyoş vaqti uçun joylaşuvingiz faqat tugmani bosganingizda söraladi va MCRJ serverida saqlanmaydi.
- Ma'lumotingizni özgartiriş yoki öçiriş uçun profilni tahrirlang yoki «Taklif va şikoyatlar» / aloqa kanallari orqali murojaat qiling.

> Ehtiyot böling: çorvani körmasdan oldindan tölov qilmang, hujjatlarni joyida tekşiring. Şubhali e'lon yoki foydalanuvçi haqida «Taklif va şikoyatlar» bölimiga xabar bering.

11. Köp beriladigan savollar

Savol	Javob
Qöşiliş pullimi?	Yöq. Qöşiliş, e'lon beriş, qidiriş va bepul reklama navbati — bepul.
Qidiriş uçun röyxatdan ötiş kerakmi?	Yöq. Kiriş faqat e'lon beriş, sörov yuboriş, çatda yoziş va baholaş uçun kerak.
SMS kod kelmasa?	Raqamni töğri yozganingizni tekşiring, bir ozdan söng qayta urinib köring.
Özbekiston telefon raqamim yöq, qanday kiraman?	«Kiriş» sahifasida «Telegram orqali kiriş»ni bosing va botda tasdiqlang (3-bölim). Joylaşuvni aniqlaşga ruxsat beriş şart.
Nega ikkinçi profil oçilmaydi?	Bitta raqamga (yoki Telegram hisobiga) bitta profil — bu aldovçilardan himoya qiladi.
Nega e'lonimda «Qönğiroq qiliş» tugmasi yöq?	Profilda «Telefon raqamimni oçiq körsatiş» belgilanmagan (yoki Telegram orqali kirgansiz — raqam yöq). Uni yoqing.
Çorva e'loni berib bölmayapti?	Avval «Hayvonlarim»ga hayvonni qöşing, keyin «E'lonlarim»da e'lon joylang.
Nega profil saqlanmayapti?	Viloyat, tuman (çet elda — mamlakat va manzil) va joylaşuvga ruxsat şart. Brauzer söroviga «Ruxsat beriş»ni bosing.
Bahoni qaçon köraman?	Ikkala tomon ham baho qöygandan keyin ikkalasi bir vaqtda oçiladi.
Tilni qanday özgartiraman?	Çap ustunning eng yuqorisidagi til tugmasi.
Xarita nega oddiy körinişda oçildi?	Standart holatda yengil «Xarita» körinişi yoqilgan (tez oçiladi). Sozlamalardan «Yöldoş» yoki «Gibrid»ni tanlaysiz.

Savolingizga javob topilmasa — AI yordamçiga yozing yoki +998 97 404-24-00 raqamiga murojaat qiling.